MANNON ABDULLAEV



Mannon Abdullaev (1896 - 1938) - jamoat arbobi. Toshkent shahrida ruhoniy oilasida dunyoga kelgan, eski usuldagi maktab va madrasada tahsil olgan. 1906 yilda Buxoroga borib turli kishilarning xususiy xizmatini bajargan. Keyinchalik Toshkentga qaytib kelib, masjidlarda imom bo‘lgan. Munavvar qori Abdurashidxonov ta’siri bilan savodini oshirib, boshlang‘ich maktablarda o‘qituvchilik qilgan. Rus-tuzem maktabini tugatgan. 1918-1921 yillarda turli tashkilotlarda, jumladan Eski shahar ijroiya qo‘mitasi maorif bo‘limida ishlagan. 1919 yilda firqaga kirgan.

Mannon Ramz 1922 yildan ijroqo‘m raisi, maorif komissarligi hay’ati a’zosi, Turkiston KP(b) muzofot va tuman Ijroiya qo‘mitasi a’zosi, TurkMIQ a’zoligiga nomzod. 1923 yil 15 noyabrdan 1925 yil avgustgacha Toshkent birinchi raykomining masu’l kotibi. 1924-1925 yillarda Pomir ekspeditsiyasida qatnashgan, 1925 yil 25 sentabrdan Toshkent uezd komiteti tashkiliy bo‘limi mudiri, 1925 yil 27 oktabrdan Toshkent viloyat targ‘ibot-tashviqot bo‘limi mudiri. 1924-1925 yillarda “Turkiston”, 1926-1927 yillarda “Qizil O‘zbekiston” va 1927-1929 yillarda “Maorif va o‘qitg‘uvchi” nashrlarida mas’ul muharrir vazifasini bajargan.

Mannon Ramz 1927-1930 yilda O‘zbekiston xalq maorif ko‘missari lavozimida faoliyat ko‘rsatgan. 1927 yil martdan qo‘shimcha ravishda Markaziy stipendiya komissiyasi raisi. 1929 yil aprelda Maorif komissari vazifasidan bo‘shatilgan. Shu yil apreldan Samarqanddagi ilmiy tekshirish institutida direktor. 1930 yilda “Narkompros ishi” bo‘yicha 10 yilga qamalgan. 1934 yilda muddatidan oldin qamoqdan qutulib, Rostovdagi “Rostselmash” zavodida kadrlar bo‘limining boshlig‘i vazifasini bajargan. Azov-Qora dengiz o‘lkasi NKVDsi tomonidan qamoqqa olingan va Toshkentga jo‘natilgan. 1937 yil 17 avgustda ikkinchi bor qamoqqa olingan va Moskvaga jo‘natilib, Butirka qamoqxonasida saqlangan. 1938 yil 27 aprelda bo‘lib o‘tgan sudda otishga hukm qilingan.